



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV INSTITUTINING VUJUDGA KELISHI, SHAKLLANISHI VA TAKOMILLASHUVI

**Rasulov Samandar G'ulomjon o'g'li,**

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy sudlov instituti mustaqillik yillarida huquqiy davlat qurish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Mazkur institutning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan bo'lib, unda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus sud organini tashkil etish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy qonuniylik, konstitutsiyaviy nazorat, huquqiy asoslar, huquqiy maqom, tashkiliy-huquqiy masalalar, qonuniylikni ta'minlash.

Konstitutsiyaviy sud ilk bor 1995-yilda tashkil etilib, u davlat hokimiyati tizimida mustaqil sud organi sifatida faoliyat yurita boshladi. Dastlabki bosqichda uning faoliyati asosan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda uning vakolatlari va funksiyalari kengaytirildi.

Konstitutsiyaviy sudlov institutining shakllanish jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin:

birinchi bosqich (1992–2000-yillar) – institutning tashkil etilishi va dastlabki huquqiy asoslarning yaratilishi;

ikkinchi bosqich (2000–2017-yillar) – sud faoliyatining barqarorlashuvi va amaliyotning shakllanishi;

uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgi davrgacha) – sud faoliyatini modernizatsiya qilish, vakolatlarini kengaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish.

Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari natijasida konstitutsiyaviy sud faoliyati yanada takomillashtirildi. Jumladan, sudning mustaqilligini kuchaytirish, uning ochiqligini ta'minlash, qarorlarining ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator choralar ko'rildi.

Shuningdek, "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda sud faoliyatining zamonaviy mexanizmlari, protsessual tartib-taomillari hamda vakolatlari



yanada aniqlashtirildi. Bu esa konstitutsiyaviy sudlov institutining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Konstitutsionalizm rivoji uchun albatta konstitutsiyaviy qonunchilik takomillashi, konstitutsiya tom ma'noda himoya qilinishi lozim. Adabiyotlarda Konstitutsiyaning himoyasi va muhofazasi sifatida konstitutsiyaga og'ishmay amal qilish, shuningdek, konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan huquqiy xarakterdagi institutlar va chora-tadbirlar tizimini joriy etish, uni barqarorligini ta'minlash uchun davlat va jamiyatda zaruriy choralarni yaratish, konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi bilan birgalikda bosqichma-bosqich mavjud qonunchilikni takomillashtirishni, amaldagi konstitutsiyaga tuzatishlar kiritish hamda yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarni belgilanishini nazarda tutadi.

Konstitutsiyani muhofaza etish – konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish orqali Konstitutsiyaning ustunligini hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'ulligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Konstitutsiyani himoya qilishning bir usuli bu konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirishdir. Konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirish orqali konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda uni maxsus muhofaza qilish ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov jamiyatda konstitutsionizmni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash uchun sud hokimiyati va sud faoliyatining alohida ahamiyatini anglatadi. Ushbu o'rinda Konstitutsiyaviy odil sudlov tushunchasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlarda konstitutsiyaviy sudlov tizimini talqin etish jarayonida turli xil kategoriyalar qo'llaniladi. "Konstitutsiyaviy yustitsiya", "konstitutsiyaviy sudlov", "konstitutsiyaviy odil sudlov", "konstitutsiyaviy nazorat", "konstitutsiyaviy kontrol" "konstitutsiyaviy monitoring" shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, adabiyotlarda konstitutsiyaviy kontrolning konstitutsiyaviy nazoratdan farqi konstitutsiyaviy kontrolda noqonuniy (Konstitutsiyaga zid) hujjatning bekor qilish vakolati mavjudligidadir deb qayd etiladi. "Kontrol" tekshiruvchi subyektning ixtiyori asosida vaqti-vaqti bilan yoki muayyan xabar berilgan taqdirda amalga oshiriladi; "nazorat" esa tekshiriluvchi organ faoliyati ustidan olib boriladigan doimiy kuzatuvdir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Odilqoriyeva F.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor; O.T.Xusanov. – T. TDYuU, 2012



O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, konstitutsiyaviy kontrol va konstitutsiyaviy nazorat tushunchalari bir xil ma'noni aks ettiradi. Mazkur terminlarni amaliyotda qo'llash yuzasidan F.X.Odilqoriyeva quyidagilarni qayd etadi: "Ko'pchilik olimlar konstitutsiyaviy nazorat" terminini keng qo'llash tarafdori bo'lsalarda, "konstitutsiyaviy sudlov", "konstitutsiyaviy odil sudlov" iboralariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, "konstitutsiyaviy sudlov" ma'no-mazmuni jihatidan "konstitutsiyaviy nazorat" terminidan torroq bo'lib, birinchisi ikkinchisining shakli sifatida maydonga chiqadi<sup>1</sup>. Yuridik adabiyotlarning tahlili "konstitutsiyaviy sudlov" tushunchasiga turli ta'riflar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, konstitutsiyaviy sudlov sohasida mutaxassis, italiyalik olim M.Kappeletting fikricha, "konstitutsiyaviy sudlov – "qadriyatlar" bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, konstitutsiyaviy xartiya me'yorlarida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarida o'z ifodasini topadigan poydevor va eng yuqori qadriyatlarni amalga oshirishni maqsad qiluvchi vositadir.<sup>2</sup>

J.B.Grossmanga ko'ra, konstitutsiyaviy sudlov bu muvofiqlashtiruvchi yoki bo'ysunuvchi hokimiyat tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning konstitutsiyaviy qonuniyligini aniqlash bo'yicha sudlarning institutsional vakolatidir.<sup>3</sup> S.A.Avakyan konstitutsiyaviy sudlovni konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish jarayoni sifatida ko'rsatgan.<sup>4</sup>

Biz yuqoridagi tushunchalarni inobatga olgan holda hamda ularni to'ldirgan holda konstitutsiyaviy odil sudlovga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har bir sohaning o'z predmeti, o'rganish obyekti hamda u tartibga soladigan munosabatlarda ishtirok yetadigan subyektlari bo'lgani kabi konstitutsiyaviy odil sudlovning ham o'z predmeti, obyekti va subyektlari mavjud. Konstitutsiya ustunligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi konstitutsiyaviy odil sudlovning predmeti hisoblanadi. Konstitutsiya boshqa normativ hujjatlardan yuridik jihatdan ustun turadi, birorta normativ-huquqiy hujjat konstitutsiyaga zid kelishi mumkin emas. Bu qoida bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida ham o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.<sup>5</sup> Aynan ushbu moddada belgilangan qoidani amaliy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar tizimini konstitutsiyaviy odil sudlovning predmeti deb aytish mumkin. Konstitutsiyaviy nazoratning samaradorligini ta'minlashda konstitutsiyaviy nazorat

<sup>2</sup> Mauro Cappelletti, In Memoria di Piero Calamandrei [In Memory of Piero Calamandrei] 77 (1957). // The referral mechanism and the role of ordinary judГЭС: Cappelletti and beyond S.Benvenuti International Journal of Constitutional Law, Volume 14, Issue 2, April 2016, PaГЭС 474–479, <https://doi.org/10.1093/icon/mow027>

<sup>3</sup> J.B.Grossman. Judicial Review in Law. Johns Hopkins University, Baltimore, Maryland, USA. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences 2001, PaГЭС 8020-8024

<sup>4</sup> **Авакьян С.А.** Конституционный Суд Российской Федерации: неоднозначные законодательные новеллы // Конституционное и муниципальное право. 2011

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-20596>



obyektlarini va ularni ko'rib chiqish chegaralarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda me'yorlarning sud nazorati har tomonlama qamrab olinishini ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy sudlov obyektini sifatida qonunlar, ijro hokimiyati organlarining hujjatlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar, davlatning ichki sharnomalari, xalqaro shartnomalar, individual huquqni qo'llash hujjatlari, harbiy va favqulodda holat joriy etishga sabab bo'ladigan holatlarning mavjudligi, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy javobgarlik bo'yicha harakatlari, saylov va referendumlarni o'tkazish yakunlarini tasdiqlash tartibi, davlat boshlig'i majburiyatlarini vaqtinchalik joriy etishga sabab bo'ladigan holatlarning mavjudligi, konstitutsiyani sharhlash, davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi nizolar, konstitutsiyaviy shikoyatlar keltirib o'tiladi.

Yuqorida qayd etilgan mazkur obyektlar har bir davlat milliy qonunchilik tizimining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib aks ettiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ayrim vakolatlar davlat hokimiyati tizimida parlament va ayrim alohida tashkil etilgan organlarning funksional vazifasi bo'lishi mumkin. Masalan milliy qonunchiligimizga muvofiq, huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar, individual huquqni qo'llash hujjatlari, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, saylov va referendumlarni o'tkazish yakunlarini tasdiqlash tartibi kabi masalalar konstitutsiyaviy sudlov obyektini hisoblanmaydi.

Masalan, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi tomonidan saylovlarni o'tkazishning konstitutsiyaviyligi, vakolatlarga oid nizolarni hal qilish, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi, konstitutsiyaviy shikoyat masalalarini ko'rib chiqilishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda referendum orqali qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlar bilan bog'liq munozarali mavzular mavjud. Referendum orqali qabul qilingan qonunlar Konstitutsiyaviy nazorat obyektini bo'la olmaydi, chunki mazkur qonunlar bevosita xalq suverenitetini aks ettiradi. Agar Konstitutsiyani referendum orqali qabul qilish va o'zgartirishda ko'pchilik (masalan mutlaq) ovoz zarur bo'lsa, bunday talablar mavjud bo'lmagan referendum orqali qabul qilingan qonunlar tekshirilishi shart.

Fransiya, Chexiya va boshqa bir qator mamlakatlarning tajribasi referendum orqali qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan Konstitutsiyaviy sudlovni joriy etmaslikni nazarda tutadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyaviy sud har qanday demokratik davlatning huquqiy tizimida alohida o'rin tutadi. Uning asosiy vazifasi Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligini ta'minlash hamda barcha normativ-huquqiy hujjatlarning unga



mos kelishini nazorat qilishdir. Konstitutsiyaviy sud — davlatning barqarorligi va adolatli huquqiy tizimining kafolati hisoblanadi. Uning samarali faoliyati jamiyatda qonunlarga hurmatni oshiradi va demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov obyektining nazariy-huquqiy masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2018. – №3 – B. 50–54. (12.00.00; №20)
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2021. 440-b.
5. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov subyekti huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari // "Biznes va innovatsiya: huquqiy masalalar va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.TDYU, 2018. – B.384-386.
6. Odilqoriyeva F.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor; O.T.Xusanov. – T. TDYuU, 2012